



MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI



«XALQ XO'JALIGI SOHASIDA ILG'OR TEXNOLOGIYALAR TADBIQI MUAMMOLARI»

MAVZUSIDAGI HUDUDiy ILMiy-TEXNIK KONFERENSIYASI

MA'RUZALAR TO'PLAMI



Chorvachilikda ilg'or texnologiyalar
va innovatsion yechimlar



Dasturlash, kiber xavfsizlik va qishloq
xo'jaligi fan sohalari integratsiyasi



Ta'lim va ishlab chiqarishda innovatsiyalar,
tahlil va prognozlash vositalari



27-dekabr 2023 yil

Konferensiya IL-392103072-
"Chorvachilik komplekslarini
elektron boshqarishning mobil
ilovasini yaratish" innovatsion
loyiha doirasida olib borilgan
ilmiy-amaliy tadqiqotlar
natijalariga bagishlangan



Nukus sh. A.Dosnazarov k. 74 uy



(61) 222-49-10



www.uzplf.uz



www.tatunf.uz

<i>B.S.Raximov, A.D.Xo'janiyazov, Z.B.Saidova</i> Tibbiy texnologiyalarning samaradorligini oshirish usullar va diagnostika vositalari	238
<i>B.S.Raximov, A.D.Xo'janiyazov, Z.B.Saidova</i> Tibbiyotda signallariga raqamli ishlov berish usullari	242
<i>Б.А.Файзуллаев, А.Я.Байназаров, Г.Б.Кипшақбаева</i> Классификация неопределенности по различными характеристиками	245
<i>Sh.Rustamov, D.Jo'rayeva</i> Ilmiy texnik axborotlar foydalanuvchilari va foydalanish maqsadlari tahlili	247
<i>Z.N.Ibragimova</i> Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish	250
<i>A.A.Rashidov</i> Bo'lajak o'qituvchilarni dars mashg'ulotlarini tashkillashtirishda loyihalash kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari	253
<i>D.X.Axmadjonova, J.X.Homidjonov, J.R.Homidjonov</i> Matematika o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va cheklovlari	255
<i>F.F.Ollamberganov</i> Videokuzatuv kameralardagi harakatlanuvchi obyektlarni aniqlash usullari	258
<i>A.Kalbaev</i> Ma'g'lumatlardin intellektual analizi tiykarinda medicinaliq diaqnoz qo'yiw maseleleri	261
<i>M.H.Xoliqnazarov, N.Y.Mo'sajonova</i> Она тили фанида ёзма нутқни ривожлантиришда акт воситаларидан фойдаланиш	266
<i>N.Sabitova</i> Tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda su'niy intellektning qo'llanishi	269
<i>L.Raximova, N.G'anijonova</i> Dasturiy ta'minot loyihalarini boshqarish usul va vositalari.	273
<i>O.A.Asrorov</i> Talabalarga fanlarni o'qitishda axborot xavfsizligini ta'minlash.	276
<i>A.Qahramonov, U.Sharopov</i> Ta'lim jarayonida srim prognozlash metodikasidan foydalanish	279
<i>A.A.Sa'dullayev</i> axborot xavfsizligining ta'limdagi o'rni	282
<i>A.A.Sa'dullayev</i> Virtual texnologiyalarni ta'lim jarayonida tadbiq etish	284
<i>J.T.Sunatov</i> Ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish samaradorligi	287
<i>J.T.Sunatov, R.T.Rustamov</i> Ta'limda innovatsion texnologiyalar	291
<i>N.M.Ustamova</i> Bo'lajak pedagoglarning kreativ sifatlarini rivojlantirish	293
<i>N.O'Sulaymonova</i> Pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining pedagogik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	295
<i>O.A.Sattarova</i> Kichik energiyali ionlarning qattiq jism sirtidan sochilish jarayonini o'rganish	299
<i>B.J.Mamanazarov, M.O. Meyliqulov</i> Virtual o'quv muhitida talabalarining o'zlashtirish natijadorligi	303
<i>Z.A.Abdukarimov</i> Computer linguistics in development stages	307
РЕФЕРАТИВ ҲИСОБОТ	312

unumdorligini oshirishga yordam beradi. Bu esa ta'lim sifatini oshishiga qaysidir ma'noda turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azamat Maqsudovich To'rayev (Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi 71908-sonli harbiy qism harbiy xizmatchisi). Umumta'lim maktablarda ta'lim sifatini ta'minlash muammolari va yechimlari. Multidisciplinary Scientific Journal. January, 2023. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 1 | 2023 ISSN: 2181-1385
2. Orishev Jamshid Bahodirovich, Inoyatova Nafosat Anorboy qizi A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim kafedrasini o'qituvchisi, Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi, Jizzax, O'zbekiston. Texnologik ta'lim o'quv jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Xolmatov P.Q., Shirinov M.K. Umumiy pedagogika. Toshkent. Navro'z. 2016. 496 b. 115-b.
4. Turdiyev U. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar asosidagi jismoniy tarbiya va sport jarayonlarini tashkil etish // Xalq ta'limi. Ilmiy metodik jurnal. 2020 № 6, B.109-115

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

N.M.Ustamova (Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti magistranti)

Annotatsiya. XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim sohasida pedagoglarning faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o'rganish natijalarini oshirishda bo'lajak pedagoglarning kreativ sifatlari va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan raqamli texnologiyalar tushunchasiga ham to'xtalib o'tdik.

Kalit so'zlar: interaktiv metod, kreativlik, ijodiy fikr, innovatsiya, pedagog, metod.

Respublikamizda bugungi kunda vujudga kelgan shart-sharoitlar bo'lajak pedagoglarning malakasini oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori Bo'lajak pedagogning kreativ

sifatlari bolalarni maktab ta'limiga samarali tayyorlash imkonini beradi, bo'lajak pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas holda faoliyat yuritishlari, har tomonlama shakllangan barkamol shaxsni tarbiyalashga doir chuqur bilim, ko'nikma, malaka va madaniyatga ega bo'lishlarini talab etmoqda. Bu esa pedagog o'z yo'nalishining mohir ustasi, o'z fanini chuqur anglagan uning muammolarini baratarf etish yo'lida izlangan, nazariyani amaliyotga tadbiiq etadigan, fan va san'atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o'qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo'lgan mutaxassis bo'lishini talab qiladi.

Pedagoglarning faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o'rganish natijalari o'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogning muhim shaxsiy sifatlari va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, pedagogning kasbiy mahoratga ega bo'lishi, bilimdonligi va kreativligi, jamiyatni va davlatni rivojlantirishga ta'siri ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o'rganishni talab etmoqda. Ayniqsa bo'lajak pedagoglarning kreativligini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqda, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi. Shuning uchun ta'lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish jarayonida talabalarda kasbiy faol kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish lozim bo'ladi.

Bo'lajak pedagogning kreativlik potentsiali. Talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag'batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, bo'lajak pedagoglar ham shunday bo'la oladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi va yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishi zarur. Mashg'ulotlarda pedagog kreativlik yo'l xaritasiga ko'ra quyidagi to'rtta yo'nalish pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi:

- 1) ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
- 2) talabalarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)dan foydalana olish;
- 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;
- 4) kutiladigan natija.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Bo'lajak pedagoglarning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur

yuritishdan farqli bo‘ladi. Ularda tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi, yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilish hamda zakovatli bo‘lishi kabi xususiyatlaridir. Pedagog hech qachon o‘z- o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati esa ma’lum vaqt ichida chuqur o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Xulosa qilib aytganda pedagoglik kasbini tanlashda nafaqat bu kasbni sevish, bolalar bilan muloqotga kirishish istagi, balki, kasbiy faoliyatning shaxsga nisbatan qo‘yadigan jismoniy, psixologik va ijtimoiy talablar uning imkoniyatlari doirasida bo‘ladi. Bo‘lajak pedagoglar ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarori.
3. Jumanova F., Avazova S., Jobborova G., Xusnetdinov U. Umumiy pedagogika asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –Toshkent, “Ishonchli hamkor”, 2020. -580 b.
4. Ergasheva, A.D. (2023). Talabalarda pedagogik-psixologik moslashuvchanlik mexanizmlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bugungi muammo sifatida pedagogs jurnali, 26(1), 13-17.

PEDAGOGIK OLIY TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARINING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

N.O‘.Sulaymonova (Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistri)

Annotatsiya. Oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak pedagoglarga kasbiy pedagogik tayyorgarlik tizimining formal tuzilmasi o‘qituvchilar kasbiy kompetentligi , ta’lim vositalari, talabalar hamda o‘qitish texnologiyalari majmuasidan iborat bo‘ladi. Ta’lim jarayonini tashkil etishda yosh kadrlarni pedagogik kompetentligini rivojlantirishda ilmiy nazariy bilimlar asosida tashkil etish.